

Bobirjon Jabborov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası doktoranti
E-mail: jabborovbobur841@gmail.com*

QO'G'IRCHOQ TEATRINING TARIXIY SPEKTAKLLARIDA NUTQIY XARAKTER YARATISH MASALALARI

***Annotatsiya.** Maqolada qo'g'irchoq teatrining tarixiy spektakllarida nutqiy xarakter yaratishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Qo'g'irchoqbozning sahna nutqi, dramatik teatr aktyoridan farqli ravishda, nafaqat ovoz orqali, balki qo'g'irchoq obrazining xatti-harakatiga ham uyg'unlashtirilishi zarurligi yoritiladi. Shuningdek, nutqiy xarakterning badiiy, estetik va ijtimoiy vazifalari ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda qo'g'irchoq teatrida sahna nutqining boy imkoniyatlari to'liq o'zlashtirilmaganligi muammo sifatida ko'rsatilib, uni hal etish yo'llari taklif etiladi.*

***Kalit so'zlar:** qo'g'irchoq teatri, tarixiy spektakl, sahna nutqi, nutqiy xarakter, aktyorlik mahorati, xatti-harakat, so'z, sahnaviy obraz, tomosha san'ati.*

PROBLEMS OF CREATING A SPEECH CHARACTER IN HISTORICAL PUPPET THEATRE PERFORMANCES

***Abstract.** The article analyzes the specific features of creating a speech character in historical puppet theater performances. It highlights the need for the puppeteer's stage speech, unlike that of a dramatic theater actor, to be coordinated not only with the voice, but also with the behavior of the puppet character. It also examines the artistic, aesthetic, and social functions of the speech character. The problem of the incomplete development of the rich possibilities of stage speech in puppet theater today is shown as a problem, and ways to solve it are proposed.*

***Keywords:** puppet theatre, historical performance, stage speech, speech character, acting mastery, behavior, word, stage image, performing art.*

O'zbek qo'g'irchoq teatri xalq ijodiyoti va qadimiy marosim an'analari asosida shakllangan bo'lib, u asrlar davomida nafaqat tomosha sifatida, balki

tarbiyaviy, ma'rifiy va estetik vazifalarni bajarib kelgan. Qo'g'irchoq teatrining dastlabki namunalari xalq og'zaki ijodi – ertak, latifa, afsona va marosim qo'shiqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shu bois bu san'at turi qadimdan xalq dunyoqarashi, urf-odatlarini va milliy qadriyatlarini avloddan-avlodga etkazishning muhim vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Tarixiy spektakllarda qo'g'irchoqlar orqali milliy qahramonlarning hayoti, ijtimoiy-siyosiy g'oyalari va ma'naviy-axloqiy qarashlari tomoshabinga etkaziladi. Bunda qo'g'irchoq obrazining nutqiy xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, qo'g'irchoq teatrida aktyorning sahnaviy ovozi, intonatsiyasi va nutqiy xarakteri qo'g'irchoq plastikasiga uyg'unlashgan holda ijro qilinishi zarur. Mazkur uyg'unlik orqali obraz jonlanadi va u o'ziga xos dramatik ifodaga ega bo'ladi.



Ayniqsa, tarixiy mavzudagi spektakllarda nutqning ilmiy-nazariy jihatdan to'g'ri qo'llanishi davr ruhini, til xususiyatlarini va ijtimoiy tafakkurni haqqoniy aks ettirish imkonini beradi. Masalan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, ko'p yillik tajribaga ega mahoratli rejissyor Shomurod Yusupov O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrida sahnalashtirgan: "To'maris", "Shiroq", "Bahrom va Dilorom", "Jaloliddin Manguberdi", shuningdek Mansur Ro'ziyevning Andijon viloyat qo'g'irchoq teatrida sahnalashtirilgan "Sheryurak Bobur", qolaversa, Samarqand viloyat qo'g'irchoq teatrining bosh rejissyori Farhod Mirzayev

sahnalashtirilgan “Ali Qushchi” spektakllaridagi tarixiy siymolar obrazida nutqiy xarakter yaratish nafaqat ularning shaxsiy qiyofasini ochib berish, balki yosh tomoshabinda tarixiy xotira va milliy g'ururni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, qo'g'irchoq teatrida sahna nutqi masalasi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida tadqiq etilishi lozim. Chunki u nafaqat fonetik va intonatsion imkoniyatlarni, balki obraz yaratish jarayonida nutqning badiiy-estetik vazifalarini ham o'zida mujassam etadi. Maqola qo'g'irchoq teatri tarixiy spektakllarida nutqiy xarakter yaratishning spetsifik xususiyatlarini aniqlash, uning nazariy-metodologik asoslarini yoritish va amaliy muammolariga echimlar taklif etishga qaratilgan.



Xususan, joriy yilning 12-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tarixiy shaxslarning ibratli hayoti va ijodi, ularning bolaligi va yoshligini ifodalovchi milliy qahramon obrazlari orqali yangi sahna asarlari yaratish bo'yicha tanlov e'lon qildi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Teatr san'atini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son qarorida 2025–2030-yillarda buyuk tarixiy shaxslarning ibratli hayoti va ijodi, ularning bolaligi va yoshligini ifodalovchi milliy qahramon obrazlari orqali yangi sahna asarlarini yaratish vazifasi belgilangan.

Unga ko'ra, "2025-yil buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o'smirlik davriga oid tarixiy va badiiy-ijodiy yondashuvga asoslangan spektakllarni sahnalashtirish rejalashtirilmoqda" [1].

Mazkur tashabbusning asosiy mohiyati shundaki, tarixiy shaxslarning hayotiga oid badiiy talqinlar yosh avlodda milliy iftixor, tarixiy xotira va estetik dunyoqarashni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatrida bu kabi tarixiy obrazlarni nutqiy xarakter vositasida jonlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki qo'g'irchoq spektakllarida nutq va ovoz nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki qahramonning ruhiy dunyosini ochib beruvchi asosiy omildir. Abu Ali ibn Sino, g'azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi, yoki Ali Qushchi kabi shaxslarning bolalik davriga oid obrazlarini yaratishda aktyorning sahnaviy ovoz tembri, intonatsiyasi, tarixiy davrga xos til unsurlaridan foydalanishi obrazning hayotiyligini hamda ta'sirchanligini oshiradi. Demak, davlat miqyosida ilgari surilayotgan mazkur tashabbus qo'g'irchoq teatrining sahna nutqi va nutqiy xarakter yaratish bo'yicha yangi ilmiy-amaliy izlanishlarga turtki bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Shu bilan birga, tarixiy shaxslarning bolaligi va o'smirlik davrini qo'g'irchoq teatrida ifodalash orqali milliy meros va an'analarni yangi badiiy shaklda tomoshabinga etkazish imkoniyati kengayadi. Bu haqida pedagog M.Sharipov o'zining "O'zbek qo'g'irchoq teatri sahnasida tarixiy qahramonlar" nomli ilmiy maqolasida shunday yozadi: "Nima uchun qo'g'irchoq teatrida tarixiy asarlarni sahnalashtirish jarayonlarini yanada kuchaytirish lozim? Chunki, qo'g'irchoq teatri tomoshabinini, asosan, yosh bolalar tashkil etadi va tariximiz, o'zligimizni anglatish farzandlarimiz tarbiyasida eng buyuk vazifadir" [2, 200–203-b]. Tarixiy shaxs deganda, inson tasavvurida fan va ilm taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, tabiat hamda jamiyat qonuniyatlarini keng ommaga tushuntirib bergan olimlar, mamlakat va xalqni ezgulikka, taraqqiyot yo'liga, ma'rifat sari etaklagan hukmdorlar, matonatli sarkardalar gavdalanadi. Tarixiy shaxsni badiiy obraz darajasida ifodalash jarayonida, avvalo, uning xarakterli xususiyatlari, fikriy qarashlari, g'oyaviy intilishlari umumlashtirilib

tasvirlanadi. Shuningdek, badiiy obrazning asosiy poydevorini tashkil etuvchi xarakter esa, ko'pincha, qahramonning nutqida namoyon bo'ladi. Chunki, nutq – shaxs tafakkuri, dunyoqarashi va ma'naviy-ruhiy olamining eng muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois sahna asarlarida, xususan, qo'g'irchoq teatrining tarixiy spektakllarida, qahramonning nutqiy ifodasi nafaqat estetik vosita, balki ularning davr ruhi, ma'naviy qiyofasi va ijtimoiy g'oyalarini jonlantiruvchi badiiy mexanizm hisoblanadi.

Nutqiy xarakterning to'g'ri berilishi obrazning ishonchliligini kuchaytiradi, tomoshabinda tarixiy shaxs haqida tasavvur uyg'otadi. Bu esa qo'g'irchoq teatrida sahna nutqini puxta o'rganish va uni tarixiylik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bunda, hozirgi globallashuv davrida yoshlar ong va tafakkurini chet el qahramonlari va to'qima obrazlari ta'siridan asrash maqsadida, buyuk merosga ega milliy qahramonlarimizni bolalik va o'smirlik yillaridagi tengdoshlariga o'rnak bo'ladigan fazilatlari, o'smirlik davrida erishgan natijalari, yutuqlari va qahramonliklarini yosh avlodga o'rnak qilish, ularning beg'ubor tafakkurida milliy qahramonlar obrazini yaratish maqsad qilingan.



Qo'g'irchoq teatrida sahna nutqini tashkil etish dramatik teatr san'atidan tubdan farq qiladi. Chunki bu jarayonda aktyorning sahnaviy ovozi qo'g'irchoqning

xatti-harakati bilan uyg'unlashgan holda ifodalanishi lozim. Shu sababli nutqiy xarakter yaratishda bir qator umumiy prinsiplarga amal qilinadi:

1. Qo'g'irchoqboz sahnaviy nutqini faqat badiiy ta'sirchanlik nuqtayi nazaridan emas, balki qo'g'irchoqning harakatlari, imo-ishoralari va plastikasiga moslashtirishi shart. Bunda ovozning kuchi, balandligi va ritmi qo'g'irchoqning dramatik vaziyatdagi xatti-harakatlariga uyg'unlashtiriladi;

2. Tarixiy spektakllarda qahramonning ijtimoiy mavqei, psixologik holati va ma'naviy dunyosi, asosan, ovoz orqali ochib beriladi. Qo'g'irchoq teatri aktyori obrazning ovoz tembrini to'g'ri tanlashi, intonatsiyani esa dramatik vaziyatga qarab o'zgartirishi zarur. Masalan, sarkarda, yoki davlat arbobi obrazida qat'iy va buyruq ohangi ustuvor bo'lsa, bolalik yillari tasvirlangan obrazlarda sokin, samimiy va quvnoq intonatsiyalar asosiy ahamiyat kasb etadi;

3. Milliy qo'g'irchoq teatrining asosiy xususiyatlaridan biri – xalqona nutq vositalaridan foydalanilishidir. Tarixiy spektakllarda obraz nutqiga maqol, matal, hikmatli so'zlar va qadimiy iboralar qo'shilishi nafaqat sahna tilining badiiyligini oshiradi, balki milliy ruh va davr atmosferasini aniqroq aks ettiradi. Bu uslub tomoshabinda tarixiy xotira va milliy o'zlikni his qilishga yordam beradi.

Qo'g'irchoq teatrida tarixiy mavzuga oid spektakllar o'ziga xos murakkablikka ega. Chunki unda nafaqat qahramonning tashqi ko'rinishi va plastika harakatlari, balki uning nutqiy xarakteri ham tarixiy davr, shaxsiyat va badiiy-estetik talablar asosida shakllantiriladi. Bu haqida professor M.Ashurova hamda dotsent A.Abduxalilov "Aktyorlik mahorati" (2-kurs qo'g'irchoq teatr aktyorligi ta'lim yo'nalishi uchun) o'quv qo'llanmasida quyidagicha yozadilar: "Spektakl yaratish jarayoni unda rol o'ynaydigan aktyorlar uchun o'sha davr ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda, jamiyatning dunyo qarashiga qarab so'zlashuv va imitatsiya orqali muomala o'rnatish, ma'lum davrning kiyinish madaniyatiga ham e'tiborli bo'lishlikni taqozo etadi" [3, 156-b]. Spektaklni va undagi ishtirokchilarni xarakterli xususiyatlarini to'g'ri anglab etish, rejissyorni asar ustidagi tahliliy ish uslublarini rivojlantiribgina qolmasdan, spektaklning umumiy yaxlitligini uning xarakterini uning yashagan zamoniga moslashgan sifatini belgilab beradi. Shundan kelib chiqib

aytishimiz mumkin-ki, qo'g'irchoq teatri uchun so'z – bu imitatsiya sahnada mantiqli munosabat o'rnatish uchun zaruriy ijodiy jarayon ekanligiga amin bo'ldik.

Tarixiy spektakllarda qo'g'irchoq orqali berilgan nutq oddiy muloqot emas, balki tomoshabin ongida tarixiy xotira uyg'otuvchi kuchga ega bo'lishi kerak. Bunda nutqiy ifodaning dramatik kuchi, metaforik boyligi va milliy estetik ruh bilan uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Shunday yondashuv orqali qo'g'irchoq obrazlari yosh tomoshabinlar uchun tarixiy saboq manbai sifatida xizmat qiladi.

Tarixiy obrazlarning faqat tashqi ko'rinishi emas, balki ularning ichki kechinmalari ham ovoz orqali ochib beriladi. Qo'g'irchoq aktyori intonatsiya, pauza, tembr o'zgarishlari orqali obrazning ruhiy holatini tomoshabinga etkazadi. Masalan, Andijon viloyat qo'g'irchoq teatrida sahnalashtirilgan “Sheryurak Bobur” spektaklida aktrisa N.Kazakova bosh qahramonni gavdalantirgan. Boburning qo'rquv, hayrat, yoki orzu-havaslari samimiy intonatsiyalar orqali jonlantirilgan. Tarixiy spektakllar haqida gap ketar ekan U.Boltaboyeva o'zining “Professional teatrlarda tarixiy she'riy dramalar ustida ishlash masalalari” nomli maqolasida shunday ta'kidlagan edi: “Tilning qudrati, nutqning go'zalligi ulug' ajdodlarimiz siymosi aks etgan tarixiy spektakllarda ko'rinar ekan, ana shu spektakllarda ishtirok etuvchi aktyorlarning barchasi ijroda o'tmish voqealarini tomoshabinlarga jonli va ta'sirli shakllarda etkazishda mas'uldirlar. Ammo ba'zi aktyorlar butun og'irlikni bosh qahramon obrazini yaratuvchi aktyorga yuklab qo'yib o'zlari so'zlarni quruq yodlash bilangina cheklanib qo'ya qoladilar. Oqibatda spektakldagi tarixiy muhitga putur etadi” [4, 479–486-b]. Qo'g'irchoq teatrida yaratilgan nutqiy xarakter yosh tomoshabinga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy shaxslarning nutqi orqali ularda vatanparvarlik, jasorat, halollik va adolat kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin. Ayniqsa, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi buyuk siymolarning sahnadagi nutqi tomoshabinga tarixiy saboq beruvchi kuchli pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Professor G.Xalikulova nomzodlik dissertatsiyasida quyidagicha yozadi: “Tarixiy mavzudagi sahna asarlari tomoshabinda teatr san'atiga xos bo'lgan estetik zavq, ehtirosli kechinmalar uyg'otish bilan birga o'tmish va uning atoqli arboblari haqida badiiylashgan ma'lumotlar berish, bilimlarini oshirish kuchiga egadir. Buyuk

ajdodlarimizning faoliyatlari, hayotiy jasoratlari va ona zamin taqdiri uchun ko'rsatgan xizmatlari xalqning ma'naviy shakllanishida va kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi"

[5, 204-b].

Nutq va harakat uyg'unligi qo'g'irchoq teatrida san'atning badiiy-estetik qiymatini ta'minlaydi. Intonatsiya, tembr, pauza va qo'g'irchoq plastikasining muvofiqligi tomoshabinda estetik zavq uyg'otadi. Shu tariqa, nutqiy xarakter nafaqat mazmuniy, balki shakliy go'zallikni ham ifoda etadi.

Qo'g'irchoq spektakllarida tarixiy shaxslarning nutqi milliy o'zlikni anglash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Ularning so'zlari orqali xalqning urf-odatlar, qadriyatlar, adolat va huquqiy qarashlari ifodalanadi. Bu esa yosh avlod ongida tarixiy xotira va madaniy merosga hurmatni shakllantiradi.



Muammo:

- qo'g'irchoq teatrida sahna nutqi texnikasi etarlicha o'rganilmagan;
- aktyorlarning nutqiy tayyorgarligi dramatik teatr aktyorlariga nisbatan kamroq e'tibor qaratilgan;
- tarixiy spektakllarda nutqiy xarakter ko'pincha yuzaki talqin qilinmoqda.

Yechimlar:

- ✓ qo'g'irchoq teatrida sahna nutqi fanini mustaqil yo'nalish sifatida chuqur o'qitish;

- ✓ tarixiy spektakllarda nutqiy xarakter yaratish uchun fonetik, intonatsion va stilistik mashqlar tizimini ishlab chiqish;
- ✓ xalq og'zaki ijodidan olingan materiallarni qo'g'irchoq spektakllarida keng qo'llash.

Qo'g'irchoq teatrining tarixiy spektakllarida nutqiy xarakter yaratish jarayoni murakkab badiiy va ilmiy izlanishlarni talab qiladigan o'ziga xos san'atdir. Zero, nutqiy xarakter qo'g'irchoq obrazining hayotiyligini ta'minlaydi, tomoshabin va sahna o'rtasidagi estetik ko'prikn shakllantiradi. Tarixiy shaxslarning nutqini sahnada jonlantirishda aktyor faqat texnik mahorat bilan cheklanib qolmay, balki tarixiy bilim, milliy qadriyatlar va o'zbek xalqining ruhiy-ma'naviy olamini chuqur his eta olishi lozim.

Bugungi globallashuv davrida qo'g'irchoq teatrida sahna nutqini rivojlantirish masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Chunki tarixiy spektakllar orqali milliy o'zlikni anglash, yosh avlod ongida tarixiy xotirani uyg'otish va ularni vatanparvarlik, milliy g'urur hamda madaniy merosga sadoqat ruhida tarbiyalash mumkin. Ayniqsa, nutqiy xarakterning tarbiyaviy, estetik va madaniy-huquqiy vazifalari qo'g'irchoq teatrining ijtimoiy ahamiyatini belgilab beradi.

Shu boisdan, qo'g'irchoq teatrida sahna nutqini ilmiy asosda tadqiq etish, maxsus metodik qo'llanmalar yaratish, aktyorlar uchun amaliy mashg'ulotlar tizimini takomillashtirish zarurdir. Faqatgina bunday kompleks yondashuv orqali tarixiy spektakllarda nutqiy xarakterning badiiy ta'sirchanligi oshadi va u tomoshabinda chuqur ruhiy kechinmalar, estetik zavq hamda ijtimoiy xulosalar uyg'otadi.

Demak, qo'g'irchoq teatrida nutqiy xarakter yaratish nafaqat badiiy-estetik jarayon, balki milliy ma'naviyat va tarixiy xotirani asrab-avaylashning ham muhim vositasidir. Bu esa uni zamonaviy teatr san'atining strategik yo'nalishlaridan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://ziyonet.uz>
2. Sharipov M. O'zbek qo'g'irchoq teatri sahnasida tarixiy qahramonlar. *Oriental Art and Culture*, vol. 4, no. 3, 2023, – pp-200-203.
3. Ashurova M., Abduxalilov A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va ta'lim, 2021. – 156-b.
4. Boltaboyeva U. Professional teatrlarda tarixiy she'riy dramalar ustida ishlash masalalari. *Oriental Art and Culture*, vol. 3, no. 4, 2022, – pp-479-486.
5. Xoliqulova G. O'zbek tarixiy dramasi talqinida sahna nutqi masalasi. *San. fan. nom. dis.* – Toshkent: 2004. – 6-b.

